

QURILISH SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH JARAYONI

Ziyayeva Mahbuba, Jizzax politexnika instituti dotsenti

Umirova Gulmira, Sambhram universiteti katta o'qituvchisi

Аннотация: ushbu maqolada qurilish sanoati korxonalarining ish faoliyati hamda uning iqtisodiy samaradorlik jarayoniga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning izohlari keltirilgan.

Калит so'zlar: qurilish sanoati, samaradorlik, mahsulot, ishlab chiqarish, makroiqtisodiy barqarorlik, valyuta munosabatlari, eksport salohiyati.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ ПРОЦЕСС ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Зияева Махбуба, доцент Джизакского политехнического института

Умирова Гульмира, старший преподаватель Самбхрамского университета

Аннотация: В этой статье даны объяснения внутренних и внешних факторов, влияющих на функционирование предприятий строительной отрасли, а также на процесс ее экономической эффективности.

Ключевые слова: строительная отрасль, эффективность, продукт, производство, макроэкономическая стабильность, валютные отношения, экспортный потенциал.

ECONOMIC OF CONSTRUCTION INDUSTRY ENTERPRISES EFFICIENCY IMPROVEMENT PROCESS

Ziyayeva Mahbuba, associate professor of Jizzakh Polytechnic Institute

Umirova Gulmira, Senior Lecturer, Sambhram University

Annotation: this article contains comments on the work activities of enterprises

of the construction industry and internal and external factors affecting its economic efficiency process.

Keywords: construction industry, efficiency, product, production, macroeconomic stability, foreign exchange relations, export potential.

Har bir davlatni eng ustuvor va muhim sohasi hisoblangan sanoat sohasini rivojlantirish eng asosiy vazifalardan biridir. Sababi, sanoat shunday bir keng tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy hamda tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatidan birlashishi, ya'ni iqtisodiy integratsiya tavsifida o'z ifodasini topadi. Natijada barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Hozirgi kunda jadal sur'atlarda o'zgarayotgan bozor talabi sharoitida ishlab chiqarish samaradorligiga bir qancha omillar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu esa qurilish sanoatida samaradorlikni oshirishda uning manbalariga alohida to'xtalib o'tishni talab etadi. Birinchi yo'nalishda mehnat omili asosiy manba bo'lib, uning malaka ko'nikmasi samaradorlikni ta'minlaydi. Ikkinchi yo'nalishda investitsiyalar, texnologiyalar transferi orqali ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish ta'minlanadi. Shu bilan birga qurilish sanoat korxonalarida samaradorlikni ta'minlash uzoq muddatli faoliyatga asoslanib, mavjud resurslardan foydalanishni yaxshilash hisoblanadi.

V.Yu.Glebov ilmiy tadqiqotlarida ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash asosiy ichki omillar ta'sir etishini ta'kidlab, ular 85%ni, qolgan 15%i esa tashqi omillar hissasiga to'g'ri kelishini izohlagan. [1]

Shunday bo'lsada, qurilish korxonalar faoliyatiga ichki va tashqi omillar bilan birga moddiy resurslar ta'minoti, innovatsion faoliyat va mahsulotlar sifati ham ta'sir qiladi. Jumladan, Sh.N.Zaynutdinov va R.I.Nurimbetovlar —ishlab chiqarish

samaradorligi ichki va tashqi omillarni o‘zaro bir-biriga bog‘liqligini o‘rganib, bunda makroiqtisodiy barqarorlik, valyuta munosabatlari, eksport salohiyatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, boshqarish xorijiy usullarni tatbiq etish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni tashkil etish va diversifikatsiyalashga alohida e‘tibor qaratish zarurligi asoslangan. [2]

N.I.Rustamov sanoat korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish va ishlovchilar manfaatdorligini oshirishni «aylanma harakat modeli»ni ishlab chiqqan [3].

O.Rodionov samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, xodimlar malakasi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, mahsulot sifatini boshqarish, ishlab chiqarish jaraenlarini kuzatish, ishlab chiqarishni bozorga moslashtirish, nazorat, javobgarlik hamda rag‘batlantirishga ajratib guruhga umumlashtirgan holda o‘rgangan [4].

A.M.Kadirov sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini o‘rgangan. U korxonalarining rentabelligini ta’minlash uchun moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing va texnologik barqarorlik ko‘rsatkichlarini tahlil etgan. Shuningdek,

muallif yuqoridagi to‘rt omil (moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing va texnologik) asosida barqaror rivojlanishni hozirgi darajasi va kelgusidagi o‘zgarish dinamikasiga baho bergan [5].

B.O.Tursunov esa o‘zining tadqiqotlarida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samadorligiga ta’sir etuvchi ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini qarab o‘tgan [6].

U samaradorlikni ta’minlashda mahsulot ishlab chiqarish hajmi hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan mutanosib foydalanish asosida ishlab chiqarish vositalaridan maksimal darajada foydalanishga alohida e‘tibor qaratgan.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning qarashlaridan kelib chiqib ishlab chiqarishning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo‘lib

o'rganish zarur (1-chizma). Jumladan, mazkur omillarni mazmun va mohiyatini qarab o'tamiz.

1-chizma

Ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	
Ichki omillar	Tashqi omillar
Moddiy-texnik resurslar mutanosibligi	Tashki iqtisodiy aloqalar
Foyda taqsimoti	Moddiy resurslar narxi
Baho siyosati	Ishchi kuchiga bo'lgan talab va takliflar
Korona imidji	Inflyatsiya darajasi
Zamonaviy texnologiyalar va nou-xaularning qo'llanilishi	Bozordagi talab va taklifni o'zgarishi
	Demografik o'zgarishlar

Ichki omillar moddiy-texnik resurslar mutonosibligi, foyda taqsimoti, korxonani marketing siyosati va boshqaruv tizimiga asoslanib, mahsulot va xizmatlarning yangi turlarini joriy qilish, tashkilotning strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish, qarorlarni qabul qilish jarayonlarini axborot bilan ta'minlashni yaxshilash, korxonah mahsulotlari sifati hamda foyda o'sishini ichki zaxiralarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda, qurilish korxonalarining qurilish bozorida tutgan o'rni, resurslardan foydalanish, narxlashtirish siyosati, mehnat resurslaridan foydalanish, investitsiya va innovatsion siyosat, moddiy resurslar ta'minoti va demografik o'zgarishlar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish natijalariga ta'sir etuvchi omillarga to'la baho berish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini o'rganishimiz va baholash usullarini umumlashtirishimiz zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. В.Ю.Глебов —Управление эффективностью промышленных предприятий на осно-ве кооперации их деятельности. Автореферат. дис. канд. экон. наук. М., 2012 г. 21 ст.
2. Ш.Н.Зайнутдинов, Р.И.Нуримбетов —Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (Региональный аспект) статья. Бюллетень науки и практики — Bulletin of Science and Practice научный журнал (scientific journal) №10 2017 г. <http://www.bulletennauki.com>
3. N.I.Rustamov. Sanoat tarmoqlarini ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida rivojlantirish mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. Toshkent – 2018 yil. 7-11-betlar.
4. A.M.Kadirov Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish («Andijonneft» AJ misolida) mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati Toshkent– 2019 y. 11-bet.
5. B.O.Tursunov Korxonada faoliyatini boshqarishni takomillashtirishda ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati Toshkent – 2019 y 11-12 bet.
6. Umirova, G. (2024). Qurilish sanoati korxonalarida boshqaruv mexanizmining iqtisodiy samaradorligini oshirish. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 10, 92-95.
7. Shodiboyevna, U. G. (2024). Qurilish korxonalarida boshqaruv mexanizmining samaradorligini takomillashtirish. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (8), 116-124.
8. Umirova, G. (2024). Iqtisodiy islohotlar sharoitida korxonalarini boshqarish. *Экономика и социум*, (3-2 (118)), 397-400.